

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLİYAVIY QULLAB-QUVVATLASH
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

I.f.d., prof. Erkin Ergashev.

Annotatsiya. Maqolada respublikamiz iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning shart-sharoitlari va omillari bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar o'rganilgan. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga doir tizimli islohotlar samaradorligi baholangan hamda mavjud imkoniyat va shart-sharoitlar ta'sirida mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, tadbirkorlik subyektlari, tadbirkorlik muhiti, tadbirkorlik faoliyati, moliyalashtirish, moliyalashtirish manbalari.

Аннотация. В статье рассматриваются процессы, связанные с условиями и факторами развития предпринимательской деятельности в экономике нашей республики. Изучены существующие проблемы финансирования предпринимательской деятельности. Дана оценка эффективности системных реформ по развитию предпринимательской деятельности, а также сформулированы научные предложения и практические рекомендации по формированию направлений дальнейшего развития предпринимательской деятельности в нашей стране с учетом существующих возможностей и условий.

Ключевые слова: предпринимательство, хозяйствующие субъекты, деловая среда, предпринимательская активность, финансирование, источники финансирования

Annotation. The article examines the processes associated with the conditions and factors of development of entrepreneurial activity in the economy of our republic. The existing problems of financing entrepreneurial activity are studied. An assessment of the effectiveness of systemic reforms for the development of entrepreneurial activity is given, and scientific proposals and practical recommendations are formulated for the formation of directions for the further development of entrepreneurial activity in our country, taking into account existing opportunities and conditions

Key words: entrepreneurship, business entities, business environment, entrepreneurial activity, financing, sources of financing

Кириш

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida rivojlantirish masalalari muhim hisoblanadi, chunki hozirda aholini ish bilan bandligini ta'minlash masalalari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim iqtisodiy xususiyatlaridan biri bo'lib, iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega.

Respublikada «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va kengaytirish, o'z-o'zini band qilish bilan bog'liq masalalar, aylanma mablag'lar hajmini oshirish, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlanishini uchun yanada keng imkoniyatlar ochish»³⁷ kabi vazifalar belgilangan bo'lib mazkur masalalarni echishda, banklarning kichik biznes sub'ektlarini moliyalashtirishni takomillashtirish borasidagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes sub'ektlarini yanada rivojlantirish bo'yicha moliyalashtirish jarayonidagi amalda yuzaga kelayotgan muammolarni chuqur tahlil qilish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Shuning bilan birga xorijiy boy tajriba hamda mahalliy ichki imkoniyatlar kompleks va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi kredit olish imkoniyatidan iborat bo'lgan yaxlit tartibni takomillashtirish yuzasidan tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti shu mamlakatdagi iqtisodiy subyektlarning qarorlariga va bu qarorlarning ijrosiga bog'liqdir. Shu sababdan ham xo'jalik yurituvchi subyektlarning, ya'ni raqobatlashuvchi firmalarning o'z faoliyatini samarali tashkil etishi mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, shu orqali aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy muammolarni yechish, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi iqtisodiy va siyosiy mavqeini mustahkamlash imkonini beradi. O'zbekiston ham barqaror iqtisodiy o'sishga erishishni mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlarining asosiy maqsadi qilib belgilab oldi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari va omillarini tadqiq etishga yo'naltirilgan qator ilmiy izlanishlarda innovatsion faoliyatga ustuvorlik berish bilan bog'liq ilmiy xulosalar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mazkur jarayonning nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etishda S.Jose va D.Maurisio ilmiy izlanishlari muhim o'rin egallaydi. Tadqiqot natijalari davomida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda texnologiyalarga ustuvorlik berish talab etiladi. Tadbirkorlik faoliyatida texnologik jarayonni muvofiqlashtirishning moliyaviy mexanizmi samaradorligini oshirishda startaplar tizimidan foydalanish taklif etiladi [6]. A. Oosthuizen, J.Van Vuuren, M.Botxa tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlanish boshqaruv tizimining o'rni muhim xarakter kasb etadi [7]. A.G.Kiryakov, V.A.Maksimov tadqiqotlarida zamonaviy ilm-fan yutuqlari innovatsion tadbirkorlik kichik biznesni rivojlantirishning yangi usuli sifatida muhokama qilinadi [8]. T.N.Kosheleva ilmiy izlanishlarida biznes sohasida innovatsion jarayonlarning o'rni iqtisodiy jihatdan baholanadi. Makroiqtisodiy darajada innovatsion muhitni shakllantirishda kichik korxonalar innovatsiyalarni tashkil etish va innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi [9].

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi PQ-306-son "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"Qarori. <https://www.norma.uz/uz/>

E.A.Gasanov o'zining ilmiy tadqiqot izlanishlarida innovatsion tadbirkorlikni shakllantirishning konseptual jihatlariga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, tadbirkorlikni rivojlantirishning axborot oqimi va innovatsion asoslari o'rtasida integral aloqadorlikning mavjud ekanligi asoslab beriladi [10].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.Abdullayev, Muftaydinov, X.Aybeshovlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanishining boshqaruv tamoyillariga e'tibor qaratgan. Boshqaruv tamoyillarida asosiy ustuvorlik innovatsion jarayonlarga asoslangan mahsulotlar assortimenti, ishlab chiqarishni takomillashtirishning strategik imkoniyatlari va mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish rejasiga bog'liqligi qayd etiladi [11]. Sh.D.Ergashxodjayeva tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyatida innovatsion marketingning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy rivojlanish bosqichlari, shakllari, turlari hamda uni korxonalar faoliyatiga tadbqiq etish yo'llari va usullariga asosiy e'tibor qaratadi [12]. B.Sharipov o'zining ilmiy tadqiqotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoq jihatidan ixtisoslashuv jarayonlarining samaradorligini oshirish innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytirishni talab etishini ta'kidlaydi [13]. M.P.Eshov o'zining ilmiy tadqiqot jarayonlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi va rag'batlantirish yo'llari innovatsion rivojlanishning asosiy omili sifatida o'rganadi [14]. T.T.Jo'rayev, R.A.Kalandarov tadqiqotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishning kelajakdagi modellarini shakllantirishni strategik jarayonlariga ustuvorlik beriladi [15]. Sh.Sh.Boltayev, A.A.Raxmatov o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning obyektiv zaruriyati, tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishda qulay biznes muhiti, marketing va klasterlarning o'rni va ahamiyatini yoritib beradi [16]. O.A.Aripov kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanishini hududiy miqyosdan kelib chiqqan holda yaxshilashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni qo'llash zaruriyatini qayd etadi [17].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot izlanishlarining asosiy xususiyati tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish jarayonlarini o'zida aks etadi. Tadqiqotlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayoni bozor omillari bilan bog'liqligi qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi qonun osti va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3697-son [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi "Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-212-son [3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish

va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son qaror[4]lari shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-150-son Farmoni [5] olindi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirish jarayoni mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan holda tadqiq etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining globallasuvi va bozor munosabatlarini takomillashtirishning amaldagi bosqichi, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion rivojlanish omillaridan samarali foydalanish tizimini optimallashtirish orqali aholi turmush farovonligini yuksaltirish jarayonlarida o'z aksini topadi. Bu borada tadbirkorlik faoliyatining o'rnini yuqori ahamiyat kasb etib, yangi tovar va xizmat turlarini yaratish, ishlab chiqarishda innovatsion loyihalar va ilm-fanni talab qiladigan ishlanmalarni shakllantirish, bozor segmentasiyasini iste'molchi talablariga muvofiqlashtirish orqali segment diversifikatsiyasini ta'minlash jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar samaradorligining ortishi bevosita ishlab chiqarish subyektlarining bozor faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonlariga ustuvorlik berishni talab etadi.

Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanishni ifodalovchi mazkur jarayon, yangi mahsulotlar va xizmatlar uchun g'oyalarni izlash, eng istiqbolli g'oyalarni oldindan tanlash, investorlarni izlash, yangi mahsulot yoki xizmatlarning bozor imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Maqsadli bozor talablarini qondirishning potensial imkoniyatlari va yangi texnologik imkoniyatlar o'rtasidagi integratsion aloqadorlik innovatsion ishlanmalarni muvaffaqiyatli tijoratlashtirishga barcha bosqichlarini samarali tashkil etish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Ayni vaqtda, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, uning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o'rnini va ahamiyatini yanada oshirish ular faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini shakllantirilganligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur tizim tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish jarayonini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni hamda banklar tomonidan mazkur subyektlar faoliyatini kreditlash amaliyotini o'z ichiga oladi.

Xususan, biznes subyektlarini moliyalashtirish jarayonini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlari muhim o'rin tutmoqda. Tadbirkorlik subyektlari uchun har bosqichda soliqqa tortish va soliq ma'murchiligini yengillashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan mexanizmlar belgilandi.

2023-yil 1 yanvardan boshlab:

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

-mikro biznes uchun aylanmadan olinadigan soliqning yagona 4 foizli soliq stavkasi joriy etildi. Bunda: olis hududlardagi va alohida toifadagi tadbirkorlar uchun amaldagi 1 va 2 foizli stavkalarni saqlab qolindi;

-ixtiyoriy ravishda yiliga 20-30 million so'm miqdorida soliq to'lashga o'tgan mikro biznes vakillarini buxgalteriya hisobini yuritish va soliq idoralariga soliq hisobotini taqdim etish majburiyatidan ozod etildi;

-tovar aylanmasi 1 milliard so'mdan oshgan kichik biznes uchun bir yil davomida foyda solig'i stavkasini 2 baravarga pasaytirildi;

-tovar aylanmasi 10 milliard so'mgacha bo'lgan kichik biznes subyektlariga xabardor qilish orqali soliq qarzini olti oygacha foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berildi. Aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha soliq hisobotlarini tadbirkorlar bilan kelishilgan holda soliq organlari tomonidan hisoblab chiqish va shakllantirib berish imkoniyati berildi.

Respublikaning barcha tuman (shahar)lari 5 ta toifaga taqsimlandi. Endilikda soliq imtiyozlari va subsidiyalar tuman (shahar)ning toifasidan kelib chiqib ajratiladi.

Shuningdek, so'nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzurida "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" tashkil etilgan bo'lib, jamg'armaning asosiy vazifalaridan biri tadbirkorlikni rivojlantirishni, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini va ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash sohasida davlat siyosati amalga oshirilishiga ko'maklashish hisoblanadi. Mazkur jamg'arma tomonidan kichik biznes subyektlarining eksportini rivojlantirishga qo'llab-quvvatlash borasida muhim yutuqlarga erishildi. Jamg'arma tomonidan tadbirkorlik subyektlarining 46 mingdan ziyod loyihalariga 15 trillion so'mdan ortiq miqdorda moliyaviy yordam ko'rsatildi.

Iqtisodiyotimizda faoliyat yuritayotgan xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimizdagi makroiqtisodiy vaziyatga ta'siri yildan yilga ortib bormoqda. Aynan shunday ta'sir mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini yaratishda tadbirkorlik subyektlarining ulushi 54,6 foizga yetganligi, aholi banligi esa deyarli 74 foizni tashkil etishini ko'rish umukin.

Tadbirkorlik faoliyatini mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir darajasini o'rganish asosida biz quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi mamlakatdagi yakuniy iste'molchilar, ya'ni aholi, firmalar, davlat va hatto chet ellik iste'molchilarning turli tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish yo'li bilan mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Aynan tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi natijasida mamlakatda iqtisodiy o'sish suratlarini ta'minlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirish, bandlikni ta'minlash, halol raqobat muhitini yaratishga imkoniyati paydo bo'ladi.

Ikkinchidan, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga keng

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

imtiyozlarning berilishi milliy iqtisodiyotimiz infratuzilmasida xususiy tadbirkorlikni o'ziga xos va mos o'rin egallashiga olib keldi.

Uchinchidan, tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlari tizimida ishtirok etishini hamda yuqori likvidli mahsulotlar olish imkoniyatini kengaytirish, eksport qiluvchi korxonalarning mahsulotlarini va olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalarini sertifikatlashtirish tartibini yanada soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga daxldor soliq tekshiruvlarini tubdan qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar xususiy tadbirkorlarning iqtisodiyotga ta'sirini yanada kengayishiga xizmat qildi.

To'rtinchidan, tadbirkorlik faoliyatini mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini ahamiyatini oshirish tadbirkorlik sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish provardida aholi bandligini ta'minlash lozim bo'ladi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirishda kapital qo'yilmalardan tashqari aylanma kapitalning zaxiralar va qayta sotish uchun olingan tovarlar kabi unsurlardan moliyalashtirishning noan'anaviy manbalarini foydalanish mumkinligini hisobga olib, quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish, maqsadga muvofiqdir: taqsimlanmagan foyda; amortizatsiya ajratmalari va ichki xo'jalik zaxiralari; bank tizimning va kredit mablag'lari ixtisoslashtirilgan bankka oid bo'lmagan kredit-moliya institutlari; davlat tomonidan markazlashtiriluvchi, investitsiya maqsadlari asosida ajratiladigan mablag'lar; xalqaro tashkilotlar va chet el investorlaridan kredit va zayomlar ko'rinishida olingan mablag'lar; qimmatli qog'ozlar emissiyasidan olingan mablag'lar. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar izchil amalga oshirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi bo'yicha qayd etilgan ko'rsatkichlar aksariyat bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan yuqori hisoblanadi. Kichik korxonalar shakllanish davrida ham, rivojlanish va o'sish davrida ham moliyaviy resurslarni shakllantirishda muammolarga duch kelishadi. Iqtisodiy faoliyatning istalgan bosqichida kichik korxonalar joriy faoliyatini ta'minlash uchun ham, moddiy-texnika bazasini moliyalashtirish uchun ham moliyaviy resurslarga muhtoj bo'ladi, ammo moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa, kichik biznesni tashkil etish bosqichida keskinlashadi.

1-jadval.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ko'rsatkichlari³⁸

	2013 y	2014 y	2015 y	2016 y	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y
O'zbekistonda kichik	1,8	1,9	4,6	6,8	7,2	4,3	8,5	7,5	6,9	4,6	4,8

³⁸ <https://stat.uz/>. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi (%)											
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining mahsulot eksportdagi hajmi (mln.\$)	3752.3	3657.8	3377.7	3139.2	2759.3	3710.8	4714.8	3100.9	3335.2	6157.5	6938.3
Kichik biznes korxonalarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd.so'm)	9701,8	11189,3	14892,0	18072,1	20944,2	27515,0	47225,2	86886,8	96629,2	109202,2	128489,5

1- jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2013 yilga nisbatan 2023 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining mahsulot eksportdagi hajmi deyarli ikki marotaba yuqori ekanligini, kichik biznes korxonalarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha esa deyarli un uch marotaba yuqori ekanligini ko'rish mumkin bo'lmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan kichik biznes korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning hajmi ham ortib bormoqda. Bu o'sish, ayniqsa, keyingi yillarda ahamiyatli bo'lib, 2023 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi umumiy qiymati 127640,6 mlrd. so'mni tashkil etdi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekistonda kichik biznes korxonalarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'mda³⁹

Yillar	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Korxonalar va aholining o'z vositalari	Qabul qilingan mablag'lar	Banklar ning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	chet el investitsiyalari va kreditlari
2013	9701,8	7497,7	2204,1	1424,0	780,1
2014	11189,3	9345,8	1843,5	1528,3	312,2
2015	14892,0	12070,5	2821,5	2222,1	592,1
2016	18072,1	15146,8	2925,3	2443,0	478,8
2017	20944,2	17063,2	3881,0	2832,0	1047,6
2018	27515,0	20566,4	6948,6	5501,2	1383,5


³⁹ <https://stat.uz/>. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

2019	47225,2	28468,7	18756,5	12810,2	5598,6
2020	86886,8	30122,5	56764,3	11620,8	44808,8
2021	96629,2	46950,0	49679,2	11090,7	38579,5
2022	109202,2	49234,4	59967,8	12542,3	47382,0
2023	127640,6	56259,7	71380,9	13041,2	58095
2013 yilga nisbatan 2023 yildagi o'zgarishi	13,2	7,5	32,4	9,2	74,4

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 2013 yilga nisbatan 2023 yildagi o'zgarishi o'rtacha 74,4 milliard so'mga to'g'ri kelgan. Kichik biznes korxonalari asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha solishtirma salmog'ining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu borada eng katta salmoq chet el investorlari mablag'lariga tegishli bo'lib, u o'sib borgan. O'z salmog'ining ahamiyatliligi bo'yicha navbatdagi manba korxonaning o'z mablag'lari bo'lib, u 2012 yildagi 50,8 foizdan 2022 yilda 19,3 foizga qadar pasaygan. Chet el kreditlarining salmog'i tegishli ravishda qariyb 0,5 foizlik ko'rsatkichdan 15,1 foizga o'sgan bo'lsa, bank kreditlari 30,8 foizdan 14,8 foizga qadar pasaygan. Bundan ko'rinadiki, tadqiq etilayotgan davrda kichik biznes korxonalarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarini moliyalashtirish manbalari orasida chet el investorlari mablag'lari (ularning reinvestitsiyalarini qo'shgan holda) va chet el kreditlarining salmog'ida o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda.



1-rasm. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining maxsulot eksportdagi xajmi (mln.\$)⁴⁰

⁴⁰ <https://stat.uz/>. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

Mazkur 1-rasmdan mamlakat eksport salohiyatidagi o'rnini oshib borayotganidan ham ko'rish mumkin. Kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rni ham asta-sekin kengayib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu soha vakillarining mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatidagi tutgan roli ortib bormoqda. Jumladan, tashqi bozordan import qilinayotgan mahsulotlarning katta hajmdagi ulushi ushbu soha vakillari xissasiga amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojldantirish yo'liga o'tkazish orqali uning mamlakat eksporti hajmidagi ulushini ham keskin darajada oshirish imkoniyati mavjud.

Barcha kichik tashkilotlarning keyingi rivojlanishi uchun o'zlarining moliyaviy imkoniyatlari mavjud emas. Bundan tashqari, zarar ko'rayotgan korxonalar soni 01.01.2023 yil holatiga ko'ra 153 644 tani tashkil etib, 200 779,0 mln. qishloq xo'jaligida - 34,8% va qurilishda - 28,7%, transportda - 33,8%. Xarakterli jihati shundaki, so'nggi yillarda (2013 yildan 2023 yilgacha) zarar ko'rayotgan kichik korxonalar ulushi ma'lum bir pasayish tendentsiyasiga ega. Shuning uchun ko'pchilik kichik biznes sub'ektlari foyda olishga alohida e'tibor berishlari kerak.

3-jadval

2013-2023 yillarda O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash tarkibidagi o'zgarishlar, %⁴¹

Yillar	sanoat	qurilish	savdo	ilm-fan va ilmiy xizmat boshqa tarmoqlar
2013	17114,6	7925,5	32242,9	24841,8
2013	23312,0	10377,7	40564,5	31409,1
2014	30907,0	13944,9	50197,8	40187,9
2015	39643,5	16954,0	61972,3	47269,6
2016	50654,5	19671,0	78935,6	61346,2
2017	61367,8	22469,4	92973,0	69212,7
2018	87962,0	37451,7	114896,4	84433,4
2019	83344,2	53960,9	138920,7	103106,6
2020	10302	63866,	164106,1	114052,7

⁴¹ <https://stat.uz/>. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

	0,8	6		
2021	12490 7,9	77907, 1	186759,3	147061,6
2023	14389 2,7	93554, 5	229166,7	181245,0

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, sanoat, qurilish, savdo hamda ilm-fan va ilmiy xizmat boshqa tarmoqlar kesimida ya'ni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yillar kesimida bir necha barobar o'trganligini ko'rish mumkin, masalan sanoat bo'yicha 2013 yilga nisbatan sakkiz barobar ortganligini ko'rish mumkin, qurilish buyicha esa, deyarli un ikki marotaba usganligini ko'rish mumkin.

XULOSA.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirishda moliyalashtirishni roli va uni kengaytirish yo'llariga qaratilgan masalalarni to'g'risida umumiy xulosalar shakllantirishga asos bo'ladi. Tadbirkorlik subyektlari yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali qarorlarini qabul qilishni tezkor, sifatli va ishonchli taxliliy ma'lumotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi:

- tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, va tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi ko'p hollarda ularning iqtisodiy-moliyaviy jihatlariga bog'liqdir. Ayniqsa tarmoq subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlari vositalari va usullari uning maqsadlari hamda o'ziga xos jihatlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarini shakllantirilishi, taqsimlanishi va ulardan samarali foydalanilishi amalga oshirishda xorijiy mamlakatlarda foydalaniladigan innovatsion yondoshuvlar asosida amalga oshirish mexanizmlarini qullash lozim.

- xususiyl mulkni rivojlantirish uchun uning ochiqlik darajasini va bu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi hissasini aniqlash borasidagi baholash mezonlarini chuqur o'ylangan holda jahon talablari hamda milliy hususiyatlarni inodatga olib ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

- tadbirkorlik su'bektleri faoliyatini rivojlanishi mehnat bozori va iqtisodiyotdagi umumiy bozor rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik sohasi sub'ektlaridagi aholi bandligi mamlakat ishsizlikni pasaytirishda yoki umuman olgan jamiyat uchun muhim rol o'ynaydi. Mahalliy bozorlarda talab va taklifni o'zaro tenglashtirish, barcha darajali byudjetlarga yukni kamaytirish uchun biznes faoliyatini yanada rivojlanishga erishish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (MANBALAR) RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 21-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ- 3697-son Qarori.
 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi "Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-212-son Qarori.
 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son Qarori.
 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash yanada davlat jamg'armasi faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-150-son Farmoni
 6. Jose Santisteban and David Mauricio. Critical success factors for technology- based startups. The Authors(s) 2020. Published by Inderscience Publishers Ltd. This is an Open Access Article distributed under the CC BY license. (<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>)
 7. Adele Oosthuizen, Jurie Van Vuuren, Melodi Botha. Compliance or management: The benefits that small business owners gain from frequently sourcing accounting services. The Southern African Journal of Entrepreneurship and Small Business Management. Vol 12, No 1 DOI: <https://doi.org/10.4102/sajesbm.v12i1.330>
 8. Кирьяков А.Г, Максимов В.А. Основы инновационного предпринимательства. - М.: Феникс, 2002.- С.160.
 9. Кошелева Т.Н. Стратегическое развитие инновационных венчурных предприятий. СПб.: ГУАП, 2009. 236 с.
 10. Гасанов Э.А. Инновационный вектор развития информационной экономики // Инновации. 2014. № 5. С. 10-14
 11. Abdullayev A, Muftaydinov K, Aybeshov X. Kichik biznesni boshqarish. Darslik. - T., «Moliya» nashriyoti, 2003-yil. 192 b.
 12. Ergashxodjayeva Sh.D. Innovatsion marketing. Darslik.-T.:TDIU, Iqtisodiyot, 2014. -178 bet.
 13. Sharipov K.B. Kichik tadbirkorlik faoliyatida tarmoq bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy
- RESEARCH AND EDUCATION ISSN: 2181-3191 VOLUME 2 |
ISSUE 3 | 2023 Scientific Journal Impact Factor 2023: 5.789
<http://sjifactor.com/passport.php?id=22258> https://t.me/ResearchEdu_Journal

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

14. Eshov M.P. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari. Monografiya.T, 2017. 80 b.

15. Jo'rayev T.T, Kalandarov R.A. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning real sektorini innovatsion taraqqiyotini ta'minlash. Ilmiy- ommabop risola.-T., 2019-yil., 52 b

16. Boltayev Sh.Sh, Raxmatov A.A. Tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning ayrim jihatlari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 5, oktyabr, 2019 yil

17. Aripov O.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaratish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019-yil